

FABACEAE OILASI KAMYOB TURLARINING TARQALISH AREALLARINI O'RGANISH.

Xalmuratov M.A.

b.f.n., DTPI

Xudoyberdiyeva X.A.

magistr DTPI.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11496936>

Annotatsiya. Ushbu maqolada viloyatimiz hududida tarqalgan O'zbekiston Respublikasi "Qizil Kitobi"ga kiritilgan *Burchoqdoshlar (Fabaceae)* oilasiga mansub turlarning botanik tavsifi, tarqalish areallari, tabiatdagi ahamiyati va gullash biologiyasi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: "Qizil kitobi", binafsha gulli arg'uvon, buxoro astragali, villis astragali, massagetov astragali, keller astragali, yumaloq to'pgulli astragal.

STUDY OF DISTRIBUTION AREAS OF RARE SPECIES OF FABACEAE FAMILY.

Abstract. This article contains information about the botanical description, distribution areas, importance in nature and flowering biology of the species belonging to the Fabaceae family included in the "Red Book" of the Republic of Uzbekistan.

Key words: "Red Book", purple-flowered lilac, Bukhara astragali, Willis astragali, Massagetov astragali, Keller's astragali, round-balled astragali.

ИЗУЧЕНИЕ АРЕАЛОВ РАСПРОСТРАНЕНИЯ РЕДКИХ ВИДОВ СЕМЕЙСТВА FABACEAE.

Аннотация. Данная статья содержит информацию о ботаническом описании, ареалах распространения, значении в природе и биологии цветения видов, принадлежащих к семейству Бобовые, занесенных в «Красную книгу» Республики Узбекистан.

Ключевые слова: «Красная книга», сирен пурпурноцветковая, астрагал бухарский, астрагал Виллиса, астрагал массагетов, астрагал Келлера, астрагал круглошаровидный.

Binafsha gulli arg'uvon-Hisor va Bobotog'da o'sadi. Tog'larning pastki qismlarida toshli, toshshag'alli va mayda jins tuproqlarda tarqalgan. Yakka-yakka holda uchraydi. Ba'zan kichik arg'uvonzorlar hosil qiladi. Urug'idan ko'payadi. O'simlik soni va arealining o'zgarish sabablari. Qurilish materiallari va o'tin uchun kesib olinishi tufayli kamayib ketgan.

Buxoro astragali - Ko'xitang va Hisor tizmalarida (Xo'jagurgur-Ota, Cho'lbair, G'ozimoylik, Oqboshtog', Qoziq'rg'on), Xandiza daryo havzasida hamda Bobotog'ning Chagam qishlog'i yaqinida tarqalgan. Ola jinlarda, loyqa va gipsli tuproqlarda, qizil qum

toshlarda o'sadi. Yakka holda, 3-4 tupi birgalikda yoki kichik to'plar hosil qilib o'sadi. Urug'idan ko'payadi, gipsli jinslardan tashkil topgan o'ziga xos sharoitda o'sishga moslashgan.

Villis astragali - Ko'xitang tizmasidagi Qizilolma qishlog'ining shimolida va Kattaqurchuq tevaraklarida uchraydi Tog'ning o'rta qismidagi shag'al-toshli yonbag'irlarda va siyrak archazorlarda o'sadi. Asosan yakka holda, ba'zan archazorlar orasida kichik-kichik tuplar hosil qiladi. Urug'idan ko'payadi. O'simlik soni va arealining o'zgarish sabablari. Chorva mollari bu o'simlik o'sib turgan yerlarda haddan tashqari ko'p boqilishi tufayli uning maydonlari qisqarib ketgan. Surxon davlat qo'riqxonasida muhofaza etiladi.

Massagetov astragali - Hisor tog' tizmasida tarqalgan. Tog'ning yuqori qismidagi toshshag'alli va gipsli yonbag'irlarda o'sadi. Kam uchraydi. Urug'idan ko'payadi. O'simlik soni va arealining o'zgarish sabablari aniqlanmagan.

Paxmoq tukli astragali - Surxondaryo viloyati: G'arbiy Hisor tizmalarida tarqalgan. Tog'larning o'rta va pastki qismlarida tosh-shag'alli yonbag'irlarda o'sadi. 1984 yildan 2001 yilgacha faqatgina 30 ta tupi yig'ilgan. Urug'idan ko'payadi. O'simlik soni va arealining o'zgarish sabablari aniqlanmagan.

Soxta cho'l astragali - Janubiy Pomir-Oloyda, Bobotog' tizmasi tarqalgan. Tog' etaklari va pastki qismlaridagi qumliklarda, bo'z va soz tuproqlarda, qizil qum toshlarda, gipsli jinslarda o'sadi. Chagam qilog'i atroflarida 50 tupi topilgan. Urug'idan ko'payadi. O'simlik soni va arealining o'zgarish sabablari aniqlanmagan.

To'polon astragali - To'polon daryo havzasida tarqalgan. Tog'ning pastki qismidagi toshloq va ochilib qolgan harsang tosh yoriklarida o'sadi. Yakka-yakka holda uchraydi. Urug'idan ko'payadi. O'simlik soni va arealining o'zgarish sabablari aniqlanmagan.

Yumaloq tupgulli astragal - Ko'xitang tizmasining janubidagi adirlarda tarqalgan (Turkmanistonda ham uchraydi. Janubiy yonbag'irlarda xarsang toshlar orasida o'sadi. Juda kam uchraydi. Aniqlangan tuplarning soni 1000 taga to'g'ri keladi. Urug'idan ko'payadi. O'simlik soni va arealining o'zgarish sabablari haqda ma'lumotlar yo'q, ammo shu atrofda boqiladigan mollar uni ezg'ilab ketadi. Surxon davlat qo'riqxonasida muhofaza etiladi.

Qiziler astragali - Hisor tizmasida: Xo'jagurgur-Ota, Qizilsuv, Oqsuv daryolarining havzalarida hamda Ko'xitang tizmasida: Kampirtepa bo'limida uchraydi. Dengiz sathidan 1400-1500 m balandlikdagi tub jinslari yer yuzasiga chiqib qolgan joylarda va ola jinslarda hamda toshli tik yonbag'irlarda o'sadi. Ko'xitang tizmasida 200 tupi aniqlangan. Urug'idan ko'payadi. O'simlik soni va arealining o'zgarish sabablari. Soni va ularning o'zgarishi haqida aniq ma'lumotlar yo'q. U faqat maxsus jinslarda o'sishga moslashganligi uchun tarqalishi chegaralangan.

Qo'rg'oshin astragal - Ko'xitang tizmasida uchraydi. Tog'larning pastki va o'rta qismlaridagi ohak toshli va mayda jins tuproqli yonbag'irlarda o'sadi.

Tabiatda yakka-yakka holda yoki 2-3 tadan tup bo'lib uchraydi. Urug'idan ko'payadi. O'simlik soni va arealining o'zgarish sabablari aniqlanmagan. Surxon davlat qo'riqxonasida muhofaza qilinadi.

Aleksey astragali - Kelif-Sherobodagi qator tepaliklarda (yotqiziqlar) tarqalgan. Kulrang, soz tuproqlarda o'sadi. Gerbariy materiallari yo'q, tipi ham yo'qolgan. Uni topish uchun olib borilgan tadqiqotlar natijasiz tugagan. Bu tur butunlay yo'qolib ketgan bo'lsa kerak. Urug'idan ko'paygan bo'lsa kerak. O'simlik soni va arealining o'zgarish sabablari aniqlanmagan.

Keller astragali - Ko'xitang tizmalarida tarqalgan. Soni aniqlanmagan. Tog'ning pastki mintaqasidagi tosh chag'ir toshli yonbag'irlarda o'sadi. Urug'idan ko'payadi. O'simlik soni va arealining o'zgarish sabablari. Mol boqilishi va urug' xosildorligining pasayganligi tufayli kamayib ketgan.

Qizil xo'roz astragali - Kelif - Sherobod tepaliklarida tarqalgan. Qizil qumoqli yonbag'irlarda o'sadi. 2001 yili 12 tup o'simlik borligi aniqlangan. Urug'idan ko'payadi. O'simlik soni va arealining o'zgarish sabablari. Mol boqilishi, turning reliktligi va ola jinslarning qisqarib ketayotganligi tufayli qisqargan.

Burchoqsimon kalispepla - Boysun tog'idagi Machaydaryo xavzasida tarqalgan. Tog'larning o'rta qismidagi ochilib qolgan ola jinlarda, nuragan toshli yonbag'irlarda va siyrak archazorlarda o'sadi. Uchta joyda borligi aniqlangan. 2009 yildagi izlanishlar Darband qishlog'idan 8-10 km yuqoridagi populyatsiyasini saqlanib qolganligini ko'rsatdi. Bu yerdagi tuplar soni 500 ta atrofida. Urug'idan ko'payadi. O'simlik soni va arealining o'zgarish sabablari. Tuliq urganilmagan. Antropogen omillar ta'sirida tarkalish maydonlari qisqarib borayotgani kuzatilmokda.

Qorapoya moyqorag'on - Boysun tog'larida tarqalgan. Tog'larning o'rta qismidagi shag'alli yonbag'irlarda va archazorlarda o'sadi. Tabiatda onda sonda uchraydi. Urug'idan ko'payadi. O'simlik soni va arealining o'zgarish sabablari. Asosan o'tin sifatida ko'plab ishlatiladi.

Yirik no'xat - Ko'xitang tizmalarida tarqalgan. Tog'larning o'rta qismlarida toshli va mayda zarra tuproqli yonbag'irlarda o'sadi. Yakka-yakka holda uchraydi, ba'zan uncha katta bo'lmagan to'plar hosil qiladi.

Urug'idan ko'payadi. O'simlik soni va arealining o'zgarish sabablari aniqlanmagan. Surxon davlat qo'riqxonalarida muxofaza qilinadi.

Vvedenskiy oksitropisi - Janubiy Hisor tizmasida tarqalgan. Tog'larning o'rta va yuqori qismlarida mayda zarra tuproqli, shag'alli yonbag'irlarda o'sadi. Tabiatda siyrak tarqalgan.

Urug'idan ko'payadi. O'simlik soni va arealining o'zgarish sabablari aniqlanmagan.

Mayda gulli oksitropis - Hisor tizmasida To'polon, Sangardak daryolari havzalarida tarqalgan. Tog'ning o'rta va yuqori qismlarida toshli va mayda zarra tuproqli yonbag'irlarda, ochilib qolgan qizil tub jinslarda o'sadi. Yakka-yakka holda tarqalgan. Urug'idan ko'payadi.

O'simlik soni va arealining o'zgarish sabablari aniqlanmagan.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki Fabaceae oilasi nafaqat turlar sonining ko'pligi, balki noyob va kamyob vakillarini tarqalish areallarining xilma-xilligi bilan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

REFERENCES

1. Абдуллаева М.Н. Род *Scutellaria* L. // Определитель растений Средней Азии, т.9,1987, с.22
2. Джангуразов Ф. Х. Растительность лесного пояса // В кн. Растительные ресурсы Гиссарского хребта р. Тупаланг. -Ташкент: Фан,1951.
3. Джангуразов Ф. Х. Орехоплодные в бассейне р. Тупаланг и прилегающих районах на склоне Гиссарского хребта // Изв. отд. ест. наук АН Таджикистана. - 1957. - Вып. 21.
4. Жумаев К. Ж. Дикорастущие эфирно-масличные растения Сурхон-Шерабадской долины. Автореф. канд. дисс. -Т., 1974, 18 с.
5. Красная книга Узбекской ССР. Т. 2. -Ташкент. Фан, 1984. -150 с.
6. Красная книга Республика Узбекистана. Под редакцией доктора биол. наук, проф. Белолипов И. В. и др. - Ташкент: Фан, 1998.
7. Мальцев И. И. Лекарственные растения бассейна реки Тупаланг. Автореф.канд.дисс. Т., -1989. -24 с.
8. Флора Узбекистана. -Ташкент: Изд. АН Руз, 1941-1962. -Т. 1-6.
9. Хасанов Ф.О. Эндемичные растения юго-западных отрогов Гиссарского хребта. Узб.биол.журн., 1991, №2, с. 41-45.
10. Холмуратов М. А. Бойсун Чўлбаир тоғларининг ўсимликлар қоплами. Автореф. канд. дисс. Т., 2007. 20б.
11. Ўзбекистон Республикаси "Қизил китоби". Тошкент, 2009. "СНinor ENK"